
QO'SHTEPADA "KEKSALAR HAFTALIGI" KO'TARINKI RUHDA O'TMOQDA



"Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish-xalqimizga xos ezgu fazilat" g'oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida shu jumladan, Qo'shtepa tumanida ham "Keksalar haftaligi" bo'lib o'tmoqda.

Haftalik doirasida 20-IDUMning ijodkor o'quvchilari Shodlik MFY, Mevazor ko'chasida istiqomat qiluvchi 80 yoshni qarshi olgan Ohunova Ominaxon onaning holidan xabar olishdi.

Onaxon suhbat davomida o'zining hayot yo'llari va erishgan yutuqlari haqida o'quvchilarga so'zlab berdi.



Huddi shuningdek, 38-umumiy o'rta ta'lim maktabining ijodkor o'quvchilari ham Shahartepa mahallasida istiqomat qiluvchi 90 yoshni qarshi olgan Turg'unboy ota holidan xabar olishdi.

Kutilmagan tashrifdan Turg'unboy ota mamnun bo'lib, duoga qo'l ochdi va tinch-osuda hayotimizga shukronalik bildirdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-07 15:42:52